

XORIJIY INVESTORLARNI JALB ETISH: RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Xalmatjanov Farxod Maxamatjanovich

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti katta o'qituvchisi

Abduraxmonov Shohruh Sherzod o'g'li

Alfraganus universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy

munosabatlar yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida xorijiy investorlarni jalb etish strategiyalari tahlil qilinadi. Xorijiy sarmoya iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, texnologik rivojlanish va ish o'rinlari yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda investitsion muhitni yaxshilash, soliq imtiyozlari, huquqiy kafolatlar, infratuzilma rivoji hamda davlat siyosatining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyo, Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda Lotin Amerikasi davlatlarining muvaffaqiyatli tajribalari tahlil qilinib, O'zbekiston uchun muhim xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: Xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, investitsion muhit, soliq imtiyozlari, huquqiy kafolatlar, infratuzilma, davlat siyosati, rivojlanayotgan mamlakatlar, xalqaro tajriba.

Annotation: This article analyzes strategies for attracting foreign investment based on the experience of developing countries. Foreign investment serves as an important factor in stimulating economic growth, technological development and job creation. The study highlights the importance of improving the investment climate, tax incentives, legal guarantees, infrastructure development and state policy. Also, the successful experiences of the countries of Southeast Asia, Central and Eastern Europe, and Latin America are analyzed, and important conclusions for Uzbekistan are drawn.

Keywords: foreign investment, economic development, investment environment, tax incentives, legal guarantees, infrastructure, state policy, developing countries, international experience.

Анотация: В статье анализируются стратегии привлечения иностранных инвестиций на основе опыта развивающихся стран. Иностранные инвестиции служат важным фактором стимулирования экономического роста, технологического развития и создания рабочих мест. В исследовании подчеркивается важность улучшения инвестиционного климата, налоговых льгот, правовых гарантий, развития инфраструктуры и государственной политики. Также анализируется успешный опыт стран Юго-Восточной Азии,

Центральной и Восточной Европы, Латинской Америки и делаются важные выводы для Узбекистана.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, экономическое развитие, инвестиционный климат, налоговые льготы, правовые гарантии, инфраструктура, государственная политика, развивающиеся страны, международный опыт.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy o'sish va rivojlanishning muhim omillaridan biri – investitsiya dasturlari hisoblanadi. Davlatlar iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb qilish orqali investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Xorijiy investorlar milliy iqtisodiyotga qo'shimcha resurslar oqimini ta'minlaydi va yangi texnologiyalar, innovatsiyalar, shuningdek, menejment tajribalarini jalb qilishga yordam beradi. Ushbu maqola xorijiy kapitalni jalb qilishda duch kelinadigan asosiy muammolarni va bu jarayonni samarali amalga oshirish bo'yicha yechimlarni tahlil qilishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi o'n yillikda rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi va bugungi kunga kelib ham ancha yuqorilamoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda xorijiy investitsiyalar muhim o'rin tutadi. Ushbu sarmoyalar ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, kengaytirish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish hamda xalqaro savdo hajmini kengaytirish imkonini beradi.

Xorijiy investitsiyalar (Foreign Direct Investment – FDI) rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda quyidagi muhim jihatlariga ega:



Texnologik innovatsiyalar: rivojlangan davlatlardagi ilg'or texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish imkoniyati paydo bo'ladi.



Bandlik darajasi oshadi: xorijiy investorlar tomonidan tashkil etilgan korxonalarda yangi ish o'rinlari yaratiladi.



Export salohiyatining oshishi: xalqaro bozor talablariga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi.



Moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi: valyuta oqimi ko'payib davlat byudjeti mustahkamlanadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida quyidagi asosiy muammolar aniqlangan:

- ✓ Huquqiy va institutsional muammolar – investitsiya qonunchiligining etarlicha rivojlanmaganligi va barqarorligi ta'minlanmasligi;
- ✓ Moliyaviy muammolar – investorlar uchun yuqori darajadagi xavf va foyda olish muddatlarining uzoqligi;
- ✓ Infrastruktura yetishmovchiligi – xorijiy kapitalni jalb qilishda yetarli infratuzilma mavjud bo'lmagani. Shuningdek, samarali siyosat va qulay investitsiya muhiti yaratish uchun xorijiy tajribadan foydalanish zarurligi ham qayd etildi. Xususan, xorijiy sarmoyadorlar uchun soliq imtiyozlari, huquqiy kafolatlar va rasmiylashtirish jarayonlarining soddalashtirilishi muhim omillar hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston investitsion muhiti hali ham xorijiy investorlar uchun yetarli darajada qulay emas. Ba'zi holatlarda, davlat siyosatining o'zgaruvchanligi va rasmiy idoralar bilan muloqot qilishda yuzaga keladigan to'siqlar xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilishda muammolarni keltirib chiqaradi. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, davlatning huquqiy va iqtisodiy barqarorligi xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, xalqaro amaliyotga nazar tashlasak, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari, xususan Singapur, Janubiy Koreya va Xitoyda xorijiy kapitalni jalb qilishda qat'iy strategiyalar qo'llangan. Ular investorlar uchun qulay soliq rejimlari va erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilish orqali muvaffaqiyatga erishgan.

Investitsiya dasturlarini moliyalashtirishda xorijiy kapitalni jalb qilish milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Buning uchun xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay huquqiy va moliyaviy muhit yaratish, infratuzilmani rivojlantirish hamda uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish xorijiy kapital oqimini oshirishga yordam beradi.

Nobel mukofoti sovrindori Joseph Stiglitz xorijiy kapitalni jalb qilishda rivojlanayotgan davlatlarning suverenitetini saqlab qolish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, ko'plab rivojlanayotgan davlatlar katta xorijiy sarmoya oqimiga qaram bo'lib qolishi xavfi mavjud. Shu sababli, Stiglitz xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida davlatlar o'z strategiyalarini mustaqil ravishda ishlab chiqishlari va milliy manfaatlarga zid kelmaydigan shartlarda ishlashlari kerakligini ta'kidlaydi.¹

Oksford Universiteti professori Paur Collierning fikriga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar xorijiy kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim. U ta'kidlaydi, yaxshi yo'l-transport tizimi, elektr ta'minoti, va kommunikatsiya tarmoqlari xorijiy investorlarga

¹ Vernon, R. Sovereignty at Bay: The Multinational Spread of U.S. Enterprises / R. Vernon. – New York: Basic Books, 2018. – 320 p.

o'z mablag'larini xavfsiz va foydali yo'naltirish imkoniyatini beradi. Agar infratuzilma yetishmovchiligi mavjud bo'lsa, xorijiy investorlar o'zlari uchun qulay bo'lgan boshqa mamlakatlarni tanlashlari mumkin.²

Alfaro xorijiy kapitalni jalb qilish va mahalliy bozor o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratadi. U xorijiy investitsiyalar mahalliy kompaniyalar bilan yaqin hamkorlik o'rnatishi, ya'ni "vertikal integratsiya" asosida ishlashi orqali yuqori darajada foyda keltirishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, bu jarayon mahalliy kompaniyalarning texnologiyalar va tajribalarni o'zlashtirishiga yordam beradi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli rivojlanishiga zamin yaratadi.³

Sachs xorijiy kapitalning rivojlanayotgan davlatlarga ta'sirini keng tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, davlatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijtimoiy va ekologik barqarorlikka ham e'tibor qaratishi kerak. Ba'zi holatlarda xorijiy sarmoya qabul qiluvchi davlatlarda ekologik zarar yoki ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, Sachs xorijiy kapitalning foydali bo'lishi uchun davlatlarning qat'iy va barqaror siyosat yuritishi zarur ekanini qayd etadi.⁴

Olimlarning fikrlariga ko'ra, xorijiy kapitalni jalb qilishda quyidagi asosiy jihatlar muhim ahamiyatga ega:

- ☐ Milliy manfaatlar va suverenitetni himoya qilish (Stiglitz);
- ☐ Infratuzilmani rivojlantirish (Collier);
- ☐ Mahalliy va xorijiy kapital o'rtasidagi hamkorlik (Alfaro);
- ☐ Ijtimoiy va ekologik barqarorlik (Sachs);

Bu jihatlar xorijiy kapitalni samarali jalb qilish va investitsiya dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda davlat siyosati va xalqaro tajribalar muhimligini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xorijiy kapitalni jalb qilish milliy iqtisodiyot rivojlanishining kalit omillaridan biri bo'lib, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. O'zbekiston xalqaro tajribadan foydalanib, huquqiy islohotlar, moliyaviy barqarorlik va infratuzilmani rivojlantirish orqali xorijiy sarmoyadorlar uchun yanada jozibador muhit yaratishi lozim. O'zbekiston investitsiya jalb qilishda sezilarli o'zgarishlar qilgan bo'lsa-da, hali ham muayyan muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, huquqiy tartibga solishning barqaror emasligi, investorlar uchun byurokratik to'siqlar va infratuzilmadagi muammolar xorijiy kapital oqimini cheklab turibdi. Shu sababli, mamlakat xalqaro tajribadan foydalanib, investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha tizimli islohotlarni amalga oshirishi lozim.

² Vernon, R. Sovereignty at Bay: The Multinational Spread of U.S. Enterprises / R. Vernon. – New York: Basic Books, 2018. – 320 p.

³ Sachs, J. D. Globalization and Its Discontents / J. D. Sachs. – New York: Norton & Company, 2019. – 272 p.

⁴ Sachs, J. D. Globalization and Its Discontents / J. D. Sachs. – New York: Norton & Company, 2019. – 272 p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Салимов, М. К. Инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда халқаро молия институтларининг роли / М. К. Салимов. – Тошкент: Молия нашриёти, 2017. – 240 б.
2. Vernon, R. Sovereignty at Bay: The Multinational Spread of U.S. Enterprises / R. Vernon. – New York: Basic Books, 2018. – 320 p.
3. Каримов, А. Т. Хорижий капитални жалб қилиш орқали инвестиция дастурларини молиялаштириш / А. Т. Каримов. – Тошкент: Илм-Фан, 2021. – 180 б.
4. Sachs, J. D. Globalization and Its Discontents / J. D. Sachs. – New York: Norton & Company, 2019. – 272 p.
5. Смит, Г. Р. Иқтисодий ривожланишда хорижий капиталнинг ўрни / Г. Р. Смит. – Тошкент: Ўқитувчи, 2020. – 198 б.